

QASHQADARYO VILOYATIDA QIZAMIQ KASALLIGI NING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI

Xudoyqulov Jonibek Bozorovich, Matnazarova Gulbahor Sultanovna

Tashkent tibbiyot akademiyasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida 2024 yildagi qizamiq kasalligining retrospektiv va operativ epidemiologik tahlili, ya'ni Qashqadaryo bo'yicha ma'muriy hududlar bo'yicha hamda kasallikning yoshlar, tarkibi va emlanganlik bo'yicha tahlili natijalari bayon qilingan. Bundan tashqari maqolada qizamiq kasalligining profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *epidemiologiya, qizamiq, kontagioz, eliminatsiya, verifikatsiya, intensiv ko'rsatgich, epidemiologik nazorat, profilaktika.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье описаны результаты ретроспективного и оперативного эпидемиологического анализа кори в Кашкадарьинской области в 2024 году, т.е. результаты анализа заболевания по возрасту, составу и вакцинации по административным районам Кашкадарьинской области. Кроме того, в статье разработаны предложения по совершенствованию профилактики кори.*

Ключевые слова: *эпидемиология, корь, заражение, элиминация, проверка, интенсивная показатель, эпидемиологический контроль, профилактика.*

ABSTRACT: *This article describes the results of a retrospective and operational epidemiological analysis of measles in the Kashkadarya region in 2024, i.e. the results of the analysis of the disease by age, composition and vaccination by administrative districts of the Kashkadarya region. In addition, the article develops proposals for improving measles prevention.*

Keywords: *epidemiology, measles, infection, elimination, verification, intensive indicator, epidemiological control, prevention.*

Dolzarbli: Qizamiq – virus keltirib chiqaradigan, qo‘zg‘atuvchisi havotomchi yo‘li bilan yuqadigan, o‘ta kontagioz, papulyoz toshmalar toshishi, burunhalqum va yuqori nafas yullari va konyuktivada kataral o‘zgarishlar kuzatiladigan, antroponoz, o‘tkir yuqumli kasallik hisoblanadi.

Qizamiq dunyodagi o‘ta yuqumli kasalliklardan biri bo‘lib, kontagiozlik indeksi 1 ga teng. Qizamiq epidemiyasi og‘ir asoratlar va o‘limga olib kelishi mumkin, ayniqsa yosh, to‘yib ovqatlanmaydigan bolalarda. Qizamiqni bartaraf etishga yaqin bo‘lgan mamlakatlarda boshqa mamlakatlardan olib kelingan kasalliklar infektsiyaning muhim manbai bo‘lib qolmoqda [7].

Qizamiq dunyoda bolalar o‘limining asosiy sabablaridan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015 yilda dunyo bo‘ylab 134,2 ming bola qizamiqdan vafot etgan. Bu kuniga 367 o‘lim yoki soatiga 15 o‘limni tashkil etadi [4]. JSST va AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (CDC)ning yangi hisob-kitoblariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘ylab 10,3 millionga yaqin qizamiq kasalligi qayd etilgan, bu 2022-yilga nisbatan 20 foizga ko‘pdir [3]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra emlashdan bosh tortganlar hisobiga, 2023-yilda dunyoda va Yevropa mintaqasida qizamiq bo‘yicha epidemiologik vaziyat keskinlashdi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Ukrainada 23070, Serbiyada 4954, Frantsiyada 2576, Gretsiyada 2476, Italiyada 2020, Rossiyada 1396, Gruziyada 1128, Afg‘onistonda 2105, Qozog‘istonda 169, Tojikistonda 300 dan ortiq, bemorda qizamiq aniqlangan [3]. 2012-yildan Yevropa mintaqasida verifikasiya jarayoni boshlangan bo‘lsada, Albaniya, Chexiya, Gretsiya, va Buyuk Britaniya kabi to‘rt mamlakat qizamiqdan xoli hudud maqomini yo‘qotganligi kuzatildi [6].

O‘zbekistonda 2010-2011-yillarda 30 yoshgacha bo‘lgan aholi yoppasiga emlash ishlari olib borilgan bo‘lib, natijada 9 million aholi emlanishiga erishilgan.

2012-yildan boshlab qizamiqqa qarshi faol epidemiologik nazorat olib borilmoqda [5]. 2017-yilda JSST tomonidan O‘zbekistonda qizamiq infeksiyasi eliminatsiya qilingani haqida sertifikat taqdim etilgan bo‘lsada bu kasallik likvidatsiya qilinganligini anglatmaydi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, eliminatsiya sertifikatga ega har bir mamlakatda, shahar yoki tumanda chet el orqali kirib keluvchi kasallanish holatlari bo‘lishi mumkin [6]. Har bir mamlakat o‘zining indikator ko‘rsatkichlariga ega, O‘zbekiston uchun indikator ko‘rsatkichi 33 million aholiga nisbatan 600 tadan ko‘p kasallanish holatiga teng [6].

Qizamiqni ikki dozali vaksina bilan oldini olish mumkin; shunga qaramay 2023 yilda 22 milliondan ortiq bola qizamiqqa qarshi emlashning birinchi dozasini o‘tkazib yubordi. 2022-yili dunyo bo‘ylab bolalarning taxminan 83 foizi qizamiqqa qarshi emlashning birinchi dozasini olgan bo‘lsa, faqat 74 foizi tavsiya etilgan ikkinchi dozani olgan xolos [4].

Tadqiqotning maqsadi: Qashqadaryo viloyat aholisi orasida 2024-yilda kuzatilgan qizamiq kasalligini epidemiologik holatlarini o‘rganish.

Tadqiqotning tekshirish materiallari: Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qumitasining Qashqadaryo viloyat boshqarmasi 2024 yildagi rasmiy ma’lumotlari va hisobotlari.

Tadqiqotning tekshirish usullari: Epidemiologik va statistik usullar yordamida olib borildi.

Natijalar va muhokama: Olib borilgan tadqiqotlar natijasi davomida 2024-yil 1-noyabr holatiga Qashqadaryo viloyati aholisi orasida qizamiq kasalligi bilan jami kasallanganlar 4366 nafarni tashkil etgan bo‘lib, shundan 3283 ta holatda (75.2%) musbat natija qayd etilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.


2024-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida qizamiq bilan kasallanishning tumanlar kesimida tasdiqlangan holatlar tahlili.

T/r	Hudud	Kasallikka gumon qilinganlar	Lab. Tah o'tkazilgan	Yoshi bo'yicha							Tarkibi buyicha				Emlanganlik					
				1 yoshgacha	1-6 let		7-14 yosh	15-19 yosh	20-30 yosh	30 yosh va yuqori	uyus hgan	uyus hmag an	O'qu vchi	Katt alar	Eml ang an	Emlanmagan				
					1-2 yosh	3-6 yosh										Ham masi	Yoshi bo'yic ha	m/o	Bos hqa lar	
1	Qarshi. sh	835	663	232	150	91	95	16	17	62	26	463	95	79	92	570	232	142	196	
2	Qarshi. t	484	376	156	68	38	52	11	13	38	13	260	52	51	58	318	152	64	102	
3	Koson. t	575	346	142	74	34	31	9	29	27	9	250	31	56	33	313	142	73	98	
4	Muborak. t	54	40	26	9	1		1	1	2	1	36		3	2	38	26	7	5	
5	Mirshikor. t	255	191	91	47	18	14	6	7	8	6	150	12	15	16	168	87	44	37	
6	Kasbi. t	175	130	66	39	8	7	6	3	1	6	113	7	4	11	119	66	33	20	
7	Nishon. t	127	90	44	19	8	9	3	3	4	3	71	9	7	8	82	44	18	20	
8	Qamashi. t	150	106	67	15	6	6	2	5	5	2	88	6	10	4	102	67	15	20	
9	Chiroqchi. t	255	215	92	46	8	32	10	15	12	11	145	32	27	6	209	92	46	71	
10	Ko'kdala. t	323	262	110	75	26	23	6	12	10	6	211	23	22	10	252	109	75	68	
11	Kitob. t	60	35	16	1	1	2	2	4	9	2	18	2	13	5	30	16	1	13	
12	Shahrisabz. t	183	145	85	22	9	18	2	4	5	5	113	18	9	26	119	85	20	14	
13	Shahrisabz. sh	102	79	39	20	5	7	3	2	3	3	64	7	5	27	52	39	13		
14	Yakkabog'. t	264	190	95	38	16	21	6	5	9	9	146	21	14	22	168	95	36	37	
15	Dehqonobod. t	110	86	47	17	2	10	2	2	6	2	66	10	8	6	80	47	16	17	
16	G'uzor. t	414	329	143	72	32	35	16	14	17	16	247	35	31	30	299	143	66	90	
	Jami	4366	3283	1451	712	303	362	101	136	218	120	2441	360	354	356	2919	1442	669	808	
	%			75,2	33,2	16,3	6,9	8,3	2,3	3,1	5	2,7	55,9	8,2	8,1	8,2	66,9	33	15,3	19

Qizamiq kasalligi tasdiqlangan holatlari intinsiv ko'rsatgichini (100 ming aholiga nisbatan) ko'rib chiqqanimizda 2024-yil holatiga ko'ra viloyat miqyosida qizamiq kasalligi bilan ro'yxatga olinganlarning kumuliyativ soni, intinsiv ko'rsatgich shahar va tuman kesimida Qarshi shahar 274,0, Mirshikor tumanida 217,0, Koson 190,1, G'uzor 180,5, Qarshi 174,5, Ko'kdala 162,6, Chiroqchi 95,0, Yakkabog' 92,0, Kasbi 85,1, Shahrisabz.t 74,6, Nishon 73,5, Dehqonobod 69,4, Shahrisabz.sh 67,8, Muborak 58,5, Qamashi 51,0, Kitob tumani 20,9 ni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibiki viloyat miqyosida Qarshi shahar, Mirshikor va Koson tumanlarida kasallanish holatlari yuqori ko'rsatgichni tashkil etgan.

2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra jami qizamiq kasalligiga 3283 nafar qizamiq kasalligi bilan chalingan bo'lsa shundan 1 yoshgacha 1444 nafar (44%), 1-2 yosh 723 nafar (22%), 3-6 yosh 295 nafar (9%), 7-14 yosh 361 nafar (11%), 15-19 yosh 66 nafar (2%), 20-30 yosh 132 nafar (4%) va 31 yoshdan kattalar 230 nafar (4%)ni tashkil etgan.

Aholi orasida tarqalgan qizamiq kasalligini ijtimoiy tarkibi bo'yicha tahlil natijasi esa uyushmagan 74%, maktab o'quvchisi 11%, kattalar 11% va uyushgan aholi soni 4% ni tashkil etgan.




1-rasm. 2024-yil Qashqadaryo viloyatida qizamiq kasalligi bo'yicha kasallanish holatlarining oylar kesimida tahlili (n=3283)

2024-yil Qashqadaryo viloyatida qizamiq kasalligi bo'yicha kasallanish holatlarining oylar kesimidagi tahlilida o'ziga xos mavsumiylikni ko'rishimiz mumkin. Mavsumiy tarqalish asosan qish va bahor oylarida jadallik bilan ko'payib kasallikning eng yuqori ko'rsatgichini namoyon qilgan (1-rasmga qarang).

Qizamiqqa qarshi emlash O'zbekiston Respublikasi milliy emlash kalendariga kiritilgan bo'lib, emlash ishlari 12 oylik bolalarda (QPQ-1) va revaksinatsiya 6 yoshli bolalarda (QPQ-2) uch valentli tirik qizamiq, parotit va qizilcha vaktsinasi bilan o'tkaziladi(8). Qizamiq kasalligi qayd etib boshlangan davrdan boshlab, ya'ni 2023 yilning sentyabr oyidan, 2023 yilning 6-dekabr kunidan 6 oylik chaqaloqlardan boshlab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda 30 yoshgacha aholi qatlami o'rtasida qizamiq kasalligiga qarshi ommaviy emlash

tadbirlari boshlandi. Emlash tadbirlari uchun 550,0 (besh yuz ellik ming) dozadan oshiq vaksina keltirilib, 426000 doza vaksina bilan 396000 dan ortiq aholi emlandi. Natijada viloyatda 2024 yilning iyul oyidan kamayishi kuzatilib, avgust oyidan kasallik qayd etilishi to‘xtadi.

Qashqadaryo viloyat 2024-yil qizamiq kasalligi bilan kasallanish holatlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, kasallanish emlanmaganlar orasida 89%, emlanganlar orasida esa 11%ni tashkil etgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Qashqadaryo viloyati buyicha tasdiqlangan qizamiq kasalligining emlanganligi to‘g‘risidagi tahlili

Xulosa: 2024-yilda Qashqadaryo viloyatida qizamiq kasalligi asosan qish va bahor oylarida mavsumiylik ko‘rsatgan va kasallikning yuqori darajasi Qarshi shahar, Mirishkor va Koson tumanlarida kuzatilgan.

Emlashning yetarlicha darajada amalga oshirilmaganligi (emlanmaganlar orasida 89%) qizamiq tarqalishining asosiy sababi bo‘lib xizmat qilgan.

Yosh guruhlari bo‘yicha tahlil qilganda, 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallikka eng ko‘p chalinayotgan guruhni tashkil etgan (44%).

Profilaktika choralari sifatida o‘z vaqtida va to‘liq emlash tadbirlarini amalga oshirish hamda epidemiologik nazoratni kuchaytirish lozim.

Ommaviy emlash natijasida qizamiq holatlari 2024-yilning iyul oyidan kamaygan va avgust oyidan boshlab kasallik qayd etilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirtazayev O.M., Zuyeva L.P., Matnazarova G.S. //Epidemiologiya// Toshkent-2020. 279-234s.
2. Bryanseva E.V., Matnazarova G.S., Mirtazayev O.M., Abdukaxarova M.F, Ne’matova N.O‘., //Qizamiq infeksiyasining etiologiyasi, epidemiologiyasi va profilaktikasi// (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) Toshkent-2022, 8-23s.
3. CDCning qizamiqqa qarshi global emlash harakatlari haqida ma'lumot: <https://www.cdc.gov/global-measles-vaccination> .
4. JSSTning qizamiq bo'yicha ma'lumotlari: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/measles> .
5. Вспышка кори в Ташкенте: миф или реальность? <http://darakchi.uz/ru/6784414.03.2019>
6. Здравосохранение <https://news.un.org/ru/story/2019/08/1362041>
7. Matnazarova, G. S., Azizova, F. L., Bryanceva, E. V., & Xamzaeva, N. T. (2022). Vakcino profilaktika Covid-19 v Uzbekistone.
8. Khamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Abdukaxarova, M. F. (2024). Coronavirus in the republic of uzbekistan during 2020-2023 retrospective epidemiological analysis of the disease (tashkent city as an example). *World Bulletin of Public Health*, 33, 108-114.
9. Iskandarova, G. T. (2006). Morfofunktsionalnoe sostoyaniye dychatelnoy sistemy yunoshей 18-27-letnego vozrasta, prozhivayushchix v usloviyax Uzbekistana. *Gigiena i sanitariya*, (3), 72-75.
10. Dilafruz, A., Gulnoza, I., Mansur, A., Khusan, K., & Ogli, A. J. B. (2021). The Problem of Food Allergies and Cross-Allergic Reactions to Fungi and Latex. *American Journal of Medicine and Medical Sciences*, 11(4), 322-327.

11. Кучкарова, М. Р., Искандарова, Г. Т., & Хакназарова, Г. Ш. (2009). Реакции терморегуляции новорожденных в условиях Узбекистана. *Гигиена и санитария*, (1), 47-49.
12. Ровшанов, Б., Искандарова, Г., & Рахманова, Ж. (2024). Бугунги кунда дунёда қизамиқнинг эпидемиологик хусусиятлари. *Talqin va tadqiqotlar*, (4 (41)).
13. Tirkashev, O. S., Matnazarova, G. S., Bryantseva, E. V., Matyakubova, F. E., Rabbimova, N. T., & Mustaeva, G. B. (2022). Measles at the present stage.
14. Тиркашев О.С, Г.С.Матназарова, & Н.С.Саидкасимова. (2024). Қизамиқда эпидемиологик назорат олиб бориш асослари . *Tadqiqotlar.uz*, 49(6), 55-56. <https://scientific-jl.org/tad/article/view/2379>
15. Шадманов, А. К., Матназарова, Г. С., & Ташматова, Г. А. (2023). Оценка эффективности иммунизации у детей раннего возраста.
16. Худойкулов, Ж. Б., Абдукахарова, М. Ф., & Матназарова, Г. С. (2018). Факторы риска злокачественных новообразований и их профилактика. *Интернаука*, (44-1), 43-45.
17. Худойкулов, Ж. Б., Абдукахарова, М. Ф., & Матназарова, Г. С. (2018). Факторы риска злокачественных новообразований и их профилактика. *Интернаука*, (44-1), 43-45.
18. Matnazarova, g., mirtazaev, o., bryantseva, e., abdukakharova, m., nematova, n., & khamzaeva, n. (2020). The new coronavirus-COVID-19 in Uzbekistan. *International Journal of Pharmaceutical Research* (09752366), 12(4).
19. Toshtemirovna, K. N., Islamovna, S. G., & Sultanovna, M. G. (2023). The Effectiveness Of A New Food Substance-A Hard Gelatin Capsule-" Sedan Bark" Is Being Studied In Children Who Have Recovered From The Coronavirus. *British View*, 8(3).